FARG‘ONA SHAHAR LANDSHAFT TUZILMALARINI INSON SALOMATLIGIGA TASIRI.

Qo‘chqarov Otabek Axmedovich
Qo‘qon davlat universiteti g.f.f.d (Phd)
Isomiddinova D.M.
Mehmonalieyva D.M.
Qo‘qon davlat universiteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola Farg‘ona shahrining landshaft tuzilmasi va uning inson salomatligiga ta’sirini o‘rganadi. Shahar landshaftlari tabiiy (relef, suv resurslari, tuproq, o‘simlik qoplami) va antropogen (turar-joy, sanoat, transport, rekreatsion hududlar) komponentlardan tashkil topgan. Turar-joy va rekreatsion landshaftlar jismoniy va ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlasa, sanoat va transport landshaftlari ba’zan salbiy ekologik ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona shahar landshaftlari, turar-joy landshaftlari, sanoat landshaftlari, rekreatsion landshaftlar, transport infratuzilmasi, Inson salomatligi, ekologik ta’sir, shaharsozlik, havo ifloslanishi, ko‘kalamzorlashtirish

Kirish O‘zbekistonning sharqiy qismida joylashgan Farg‘ona vodiysi tabiiy va antropogen landshaftlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Vodiydagi yirik shaharlar Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon tarixiy, iqtisodiy va demografik jihatdan muhim markazlar hisoblanadi. Ushbu shaharlarning landshaft tuzilmasi tabiiy geografik omillar, sug‘orish tizimlari, sanoatlashuv va shaharsozlik jarayonlari ta’sirida shakllangan.

Shahar landshafti bu tabiiy komponentlar (relef, iqlim, suv resurslari, tuproq va o‘simliklar) hamda inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan antropogen elementlar majmuasidan iborat murakkab geotizimdir. Farg‘ona shahri landshaft tuzilmasi Farg‘ona shahri Farg‘ona vodiysining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, nisbatan tekis relefga ega. Shahar landshaftlarining shakllanishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

-Tabiiy landshaftlar: allyuvial tekisliklar, sug‘oriladigan voha tuproqlari.

- Suv resurslari: shahar atrofida katta kanallar va irrigatsiya tarmoqlari mavjud.

- O‘simlik qoplami: shahar ko‘chalarida sun’iy ko‘kalamzorlashtirish, bog‘-rog‘lar va parklar keng tarqalgan.

Farg‘ona shahrida landshaftlar asosan quyidagi turlarga ajratiladi: Turar-joy landshaftlari shahar hududida aholining yashashi uchun mo‘ljallangan hududlar bo‘lib, ular turar-joy binolari, mahallalar, ko‘chalar, ijtimoiy infratuzilma va ko‘kalamzor hududlardan tashkil topgan antropogen landshaft turidir. Bu landshaftlar shahar landshaft tizimining eng keng tarqalgan qismi hisoblanadi. Ko‘kalamzor hududlar (daraxtlar, parklar) havoni tozalaydi va kislorod miqdorini oshiradi. Shovqinni kamaytiradi va ekologik muhitni yaxshilaydi, natijada odamlarning jismoniy sog‘lig‘i yaxshilanadi, chiroyli va tartibli landshaftlar stressni kamaytiradi, tabiiy elementlar (daraxt, suv, gullar) odamga tinchlik va xotirjamlik beradi ,bu insonning kayfiyati va ish unumdorligini oshiradi, parklar va dam olish zonalari odamlar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, bolalar o‘ynashi, sport bilan shug‘ullanishi uchun imkoniyat yaratadi, mahalla yoki hududdagi ijtimoiy faollik ortadi, go‘zal landshaft insonda estetik didni shakllantiradi, hududning milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi, turar-joy joyining jozibadorligini oshiradi. Turar-joy landshaftlarini to‘g‘ri rejalashtirish insonning sog‘ligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun zamonaviy shaharsozlikda ekologik va estetik landshaft yaratishga katta e’tibor beriladi.

Sanoat landshaftlari insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida shakllangan antropogen landshaft turi bo‘lib, ularga sanoat korxonalari, zavod-fabrikalar, omborlar, transport infratuzilmasi va muhandislik tarmoqlari kiradi. Bu landshaftlar shahar iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq hududlarni qamrab oladi. Farg‘ona shahri Farg‘ona vodiysining muhim sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Shaharda neft-kimyo, qurilish materiallari va yengil sanoat tarmoqlari rivojlangan. Yirik sanoat korxonalari joylashgan sanoat zonalari, transport tarmoqlari bilan yaxshi bog‘langan hududlar ishlab chiqarish infratuzilmasi bu hududlar asosan shaharning chekka qismlarida joylashtirilgan.

Havo ifloslanishi **z**avod va fabrikalardan chiqadigan tutun va gazlar havoni ifloslantiradi. Bu nafas olish kasalliklari ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Suv va tuproq ifloslanishi **s**anoat chiqindilari daryolar va tuproqqa tushib, ichimlik suvi sifatini yomonlashtiradi, Shovqin va tebranish sanoat hududlarida texnika va ishlab chiqarish jarayonlari doimiy shovqin chiqaradi, bu inson asab tizimiga salbiy ta’sir qiladi. Sog‘liq muammolari kimyoviy moddalar bilan uzoq vaqt aloqada bo‘lish turli kasalliklar xavfini oshiradi. Sanoat landshaftlari inson hayotiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ekologik nazorat, chiqindilarni kamaytirish va yashil texnologiyalarni qo‘llash muhim hisoblanadi. Daraxtlar va o‘simliklar karbonat angidridni yutadi, kislorod ajratadi va zararli zarrachalarni filtrlaydi. Bu, ayniqsa, chang-gaz ifloslanishi yuqori bo‘lgan hududlarda aholi uchun foydalidir (Nowak et al., 2014).

Rekreatsion landshaftlar insonlarning dam olishi, sog‘lomlashishi va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun mo‘ljallangan tabiiy va antropogen hududlar majmuasidir. Bu landshaftlar shahar muhitining ekologik holatini yaxshilash, aholining jismoniy va ruhiy salomatligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shahar landshaft tizimida rekreatsion hududlarga bog‘lar, parklar, xiyobonlar, suv havzalari atrofidagi dam olish joylari va yashil zonalar kiradi. Bog‘lar va xiyobonlar aholining jismoniy mashqlariga undaydi, bu esa yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi (Lee & Maheswaran, 2011). Rekreatsion landshaftlar shahar ekologiyasini barqaror saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Farg‘ona shahrida rekreatsion landshaftlar yaxshi rivojlangan. Shaharda ko‘plab parklar, xiyobonlar va ko‘kalamzor hududlar mavjud. Farg‘ona shahridagi rekreatsion landshaftlar xususiyatlari: shahar markazida joylashgan parklar, aholi dam olishi uchun mo‘ljallangan yashil hududlar sport va madaniy tadbirlar o‘tkaziladigan maydonlar bu hududlar shahar aholisi uchun ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Yashil hududlarda vaqt o‘tkazish stressni kamaytiradi va psixologik farovonlikni oshiradi (Ulrich, 1984).

Farg‘ona shahri Farg‘ona vodiysining muhim transport markazlaridan biri hisoblanadi. Shaharda avtomobil va temir yo‘l tarmoqlari yaxshi rivojlangan, markaziy magistral yo‘llar, shahar ichidagi jamoat transporti tarmoqlari temir yo‘l stansiyasi, shaharlararo transport aloqalari transport infratuzilmasi landshaftlari shahar hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular aholining kundalik harakati, iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy aloqalarini ta’minlaydi. Shu bilan birga, transport tarmoqlari inson hayotiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Natijalar va muhokama: Ijobiy ta’sirlari transport yo‘llari va jamoat transporti aholining ish joyi, ta’lim muassasalari va xizmat ko‘rsatish markazlariga tez yetib borishini ta’minlaydi. Transport infratuzilmasi rivojlangan shaharlarda savdo, xizmat ko‘rsatish va

sanoat tarmoqlari samarali ishlaydi. Transport tizimi odamlar o‘rtasidagi muloqotni va madaniy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Transport tarmoqlari yaxshi rivojlangan hududlarda turistlar harakati osonlashadi va shahar iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Salbiy ta’sirlari Havo ifloslanishi Avtomobil transportidan chiqadigan gazlar havoni ifloslantirib, inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Avtomobil transportidan chiqadigan gazlar miqdori dvigatel turi, yonilg‘i sifati va avtomobilning texnik holatiga qarab farq qiladi. Ammo odatda ichki yonish dvigateli ishlaganda chiqadigan gazlar tarkibi taxminan quyidagicha bo‘ladi. Азот (N_2) 70-75%, Karbanat dioksid (CO_2) 12-14%, Suv bug‘i (H_2O) 9-11%, Kislorod (O_2) 0-5%, Korbonat oksid (CO) 0,1-1%, Azot oksidlar (NOx) 0,01-0,1%, Uglevodorodlar (HC) 0,01-0,1%, Azot, suv bug‘i va karbon dioksid avtomobil chiqindi gazlarining asosiy qismini tashkil etadi, zararli moddalar esa umumiy gaz hajmining kichik qismi bo‘lsa-da inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavfli hisoblanadi. Yonilg‘i sarfiga nisbatan chiqindi gazlar ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra: 1 litr benzin yoqilganda taxminan 2–2.3 kg CO_2 atmosferaga chiqadi. Avtomobil yiliga taxminan 20 kg atrofida NOx chiqarishi mumkin (o‘rtacha yurish sharoitida).

Avtomobil transportida inson salomatligi uchun asosan quyidagi gazlar xavfli:

CO (karbon oksid) – kislorod yetishmasligiga olib keladi

NOx (azot oksidlari) – nafas yo‘llariga zarar yetkazadi

HC (uglevodorodlar) – smog hosil qiladi

PM (mayda zarrachalar) – o‘pkaga chuqur kirib boradi

Bundan tashqar shaharlarda shovqin muammosi katta magistral yo‘llar atrofida yashaydigan aholi doimiy transport shovqinidan aziyat chekishi mumkin, yo‘l-transport hodisalari transport harakati ko‘p bo‘lgan shaharlarda yo‘l-transport hodisalari xavfi ortib boradi, ekologik bosim Yo‘l qurilishi tabiiy landshaftlarning o‘zgarishiga va yashil hududlarning qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa Farg‘ona shahar landshaftlari inson salomatligiga murakkab ta’sir ko‘rsatadi. Turar-joy va rekreatsion landshaftlar ijobiy ta’sir, sanoat va transport landshaftlari esa ijobiy va salbiy ta’sirlarni uyg‘unlashtiradi. Shuning uchun ekologik nazorat, chiqindilarni kamaytirish, yashil hududlarni kengaytirish va estetik landshaft yaratish shaharsozlikda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadaliyev, Y. I. — Farg‘ona vodiysi yer resurslaridan foydalanishning ekologik va geografik jihatlari. (Farg‘ona shahri va atrofidagi antropogen landshaftlarning shakllanishi bo‘yicha).
2. Nazarov, M. G., & Nigmatov, A. N. — Shahar ekologiyasi va urbanoekotizimlar barqarorligi. (O‘zbekiston shaharlari landshaftini rejalashtirish bo‘yicha).
3. Nazarov, M. G., & Mirzaliyev, B. K. (2020). Farg‘ona vodiysi shaharlari geoekologiyasi va landshaft rejalashtirishi. Toshkent: Fan va texnologiya. (Lokal geoekologik holat va sanoat ta’sirini yoritish uchun)
4. Ulrich, R. S. (1984). View through a window may influence recovery from surgery. Science, 224(4647), 420-421.
5. Lee, A. C. K., & Maheswaran, R. (2011). The health benefits of urban green spaces: a review of the evidence. Journal of Public Health, 33(2), 212-223.
6. Nowak, D. J., Hirabayashi, S., Bodine, A., & Greenfield, E. (2014). Tree and forest effects on air pollution and human health in the United States. Environmental Pollution, 193, 119-129.
7. Goyerev, O. T. (2021). Shahar antropogen landshaftlarining inson salomatligiga ta'siri va ularni optimallashtirish masalalari. Geografiya va tabiatdan foydalanish masalalari, 3(2), 45-52.